



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



AXBOROT XIZMATINING TA'LIM MUASSASASI IMIJIGA TA'SIRI: PREZIDENT MAKTABLARI MISOLIDA

Qarshiboyeva Gulsun

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. *Maqolada ta'lim muassasasining ijobiy imijini shakllantirish va mustahkamlashda axborot xizmatining o'rni va ta'siri ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot Toshkent shahri va Samarqand viloyatidagi Prezident maktablari faoliyati misolida olib borildi. Davlat organlari axborot xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, PR nazariyasining asosiy konseptual qoidalari hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligining rasmiy ma'lumotlariga asoslanadi. Tadqiqot natijasida ikki maktab axborot faoliyatining o'ziga xos jihatlari, samaradorlik ko'rsatkichlari va mavjud muammolari aniqlandi. Maqola yakunida muassasa imijini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot xizmati, brending, imij, ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik bilan aloqalar (PR), kommunikatsiya strategiyasi, ta'lim muassasasi, STEAM ta'limi, Prezident maktablari*

Аннотация. *В статье с научно-практической точки зрения анализируется роль и влияние информационной службы в формировании и укреплении положительного имиджа образовательного учреждения. Исследование проведено на примере деятельности Президентских школ города Ташкента и Самаркандской области. Статья основана на нормативно-правовых актах, регулирующих деятельность информационных служб государственных органов, основных концептуальных положениях теории PR, а также официальных данных Агентства президентских образовательных учреждений. В результате исследования выявлены особенности информационной деятельности двух школ, показатели эффективности и существующие проблемы. В заключении статьи разработаны практические рекомендации по совершенствованию имиджа учреждения.*

Ключевые слова: *информационная служба, связи с общественностью (PR), имидж, образовательное учреждение, Президентские школы, брендинг, социальные сети, коммуникационная стратегия, STEAM-образование.*

Kirish

Globallashuv va raqamlashuv davrida har qanday tashkilotning, jumladan, ta'lim muassasalarining jamoatchilik oldidagi obro'-e'tibori — imiji uning faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omilga aylangan. Imij ta'lim muassasalari uchun iqtidorli o'quvchilarni jalb etish, malakali pedagog kadrlarni saqlab qolish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi qaroriga muvofiq, har bir davlat tashkilotida axborot xizmati faoliyat yuritmoqda . Ushbu xizmatlar tashkilot va jamoatchilik o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlash, ijobiy axborot maydonini shakllantirish hamda muassasa imijini mustahkamlash vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning maqsadi — Toshkent shahri va Samarqand viloyatidagi Prezident maktablari misolida axborot xizmatining ta‘lim muassasasi imijini shakllantirish va mustahkamlashga ko‘rsatadigan ta‘sirini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish. Tadqiqot mazmuni quyidagi vazifalarni qamrab oladi: axborot xizmati va ta‘lim muassasasi imiji tushunchalarining nazariy asoslarini o‘rganish; Prezident maktablari axborot xizmatlarining tashkiliy tuzilmasi va faoliyat yo‘nalishlarini tahlil qilish; ikki maktabning rasmiy sahifalari kontentini qiyosiy o‘rganish; imij shakllantirish jarayonidagi muammolarni aniqlash va takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish.

Axborot xizmati va ta‘lim muassasasi imijining nazariy asoslari

Axborot xizmati (matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar xizmati) — bu davlat organi yoki tashkilotning bevosita rahbariga bo‘ysunuvchi, tashkilot va jamoatchilik o‘rtasidagi axborot almashinuvini ta‘minlovchi tarkibiy bo‘linmadir. Urinbayeva (2024) ta‘kidlaganidek, davlat organlarida ularning xalq bilan muloqot qilishida ko‘prik vazifasini jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limlari bajaradi va PR ning hozirgi muhim vazifalaridan biri ma‘lumotlar oqimini aniq shakllantirish va tashkil qilishdir .

PR (Public Relations) nazariyasi nuqtai nazaridan, jamoatchilik bilan aloqalar — bu tashkilot va uning brendlari obro‘ sini saqlab qolish uchun tashkilotga tegishli ma‘lumotlarni ommaga chiqarish va tarqatishni boshqarishning strategik jarayonidir. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassis ixtisoslashtirilgan aloqa rejasini tuzadi va ijobiy brend imidjini hamda maqsadli auditoriya bilan mustahkam aloqani yaratish va qo‘llab-quvvatlash uchun ommaviy axborot vositalari va boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita vositalardan foydalanadi.

Imij — ma‘lum bir obyekt haqida jamoatchilik ongida shakllangan emotsional-ratsional tasavvurdir. Ta‘lim muassasasi imiji muassasaning ta‘lim sifati, pedagog kadrlarning malakasi, infratuzilmasi, bitiruvchilarining muvaffaqiyatlari, korporativ madaniyati va jamoatchilik bilan muloqot uslubi asosida shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "ta‘limda brendlar va ilmiy an‘analar tizimini yaratish asosida ta‘lim muassasalari imijini shakllantirish strategiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi belgilab qo‘yilgan .

Prezident maktablari axborot xizmati faoliyati tahlili

Prezident maktablari O‘zbekistonda iqtidorli bolalarni aniqlash va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim muassasalaridir. Ilk Prezident maktablari 2019-yilda Toshkent, Nukus, Namangan va Xivada faoliyatini boshlagan, 2021-yilda esa Qarshi, Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Termiz, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Nurafshon va Gulistonda yangi maktablar ochildi. Prezident ta‘lim muassasalari agentligi (PIIMA) tarkibida "Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan aloqalar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



bo'limi" faoliyat yuritadi. Mazkur bo'lim Agentlik tasarrufidagi 14 ta Prezident maktabi, 9 ta Ijod maktabi va 3 ta ixtisoslashtirilgan tayanch maktabning axborot faoliyatini muvofiqlashtiradi. Agentlikning 2022-yil 14-martdagi 24-AF-sonli buyrug'iga muvofiq, har bir ta'lim muassasasida "OAV va jamoatchilik bilan ishlashga mas'ul xodim" lavozimi joriy etilgan. Mas'ul xodimlar faoliyati matbuot tadbirlariga professional yondashuv, axborotni infografika, foto, video shaklida taqdim etish mahorati hamda OAVda yorita olishi kabi mezonlar bo'yicha baholanadi.

Toshkent va Samarqand maktablarining qiyosiy tahlili

Toshkent shahridagi Prezident maktabi 2019-yil 5-sentabrda ochilgan ilk Prezident maktabidir. 2019-yilda maktabning 5–10-sinflari uchun hujjat topshirgan 7 mingga yaqin o'quvchidan 144 nafari o'qishga qabul qilingan. Maktabning axborot xizmati Telegram, Facebook, Instagram va YouTube platformalarida rasmiy sahifalarini yuritadi. Kontent quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: o'quvchilarning xalqaro yutuqlari (2023-yilda bitiruvchi J. Arifjanov California Institute of Technology grantini yutib oldi), xalqaro Digital SAT imtihon markazi sifatidagi faoliyat, "Yoshlar Akademiyasi Forumi" kabi tadbirlar va o'quvchilarning madaniy-ma'rifiy tashriflari.

Samarqand viloyatidagi Prezident maktabi 2021-yilda Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi 82-uyda ochilgan. Maktab rasmiy sahifalarini Instagram (@samarqandpm), Facebook (SamarqandPM) va Telegram kanali orqali yuritadi. Kontent strategiyasida kirish imtihonlari jarayonini yoritish, ilmiy yutuqlar, xalqaro hamkorlik tadbirlari va mintaqaviy madaniyatni targ'ib qilish ustuvor o'rin egallaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent maktabi xalqaro auditoriyaga yo'naltirilgan, ingliz tilidagi kontent ulushi yuqori bo'lsa, Samarqand maktabi mintaqaviy auditoriyani qamrab olib, mahalliy madaniyat va ota-onalar bilan muloqotga e'tibor qaratadi.

Axborot xizmati faoliyatining samaradorligi raqamlarda o'z aksini topadi: 2022–2023 o'quv yilida Prezident maktablarini bitirgan 326 nafar o'quvchining barchasi (100%) IELTS sertifikatini qo'lga kiritgan; bitiruvchilarning 84 foizi (275 nafari) muddatidan oldin nufuzli xorijiy oliygohlarda o'qish imkoniyatiga ega bo'lishgan; jami 104,4 mln. AQSh dollari miqdorida ta'lim grantlari yutib olingan. 2023-yilda 14 ta Prezident maktabi xalqaro Cambridge tashkilotining akkreditatsiyasidan o'tib, rasmiy "A-Level" imtihon markazlariga aylangan. Aynan ushbu yutuqlar haqidagi axborotning OAV va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritilishi maktablar imijining mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot xizmati zamonaviy ta'lim muassasalari, jumladan, Prezident maktablari imijini shakllantirish va mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro grantlar, IELTS va SAT natijalari, Cambridge akkreditatsiyasi haqidagi axborotlarning muntazam yoritilishi Prezident maktablariga bo'lgan ishonchni mustahkamlamoqda va ularni mamlakatdagi eng nufuzli ta'lim brendlaridan biriga aylantirmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Toshkent va Samarqand Prezident maktablari misolida ko'rilganidek, axborot xizmatining samaradorligi muassasaning hududiy joylashuvi, kadrlar tarkibi va kontent strategiyasiga bog'liq. Kelgusida Prezident maktablari imijini yanada rivojlantirish uchun professional axborot xizmati guruhlarini tashkil etish, ko'p tilli kontent ishlab chiqish, interaktiv muloqotni rivojlantirish va inqirozli kommunikatsiyalar tizimini takomillashtirish zarur.

Muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari

Tadqiqot jarayonida quyidagi muammolar aniqlandi. Birinchidan, ba'zi maktablar axborot xizmati xodimlari yetarli professional tayyorgarlikka ega emas: 2022-yil iyundagi reyting natijalariga ko'ra, 27 ta xodimdan 7 nafarining ishi yuqori, 9 nafarining o'rta, 11 nafarining qoniqarli darajada baholangan. Ikkinchidan, hududiy maktablar (jumladan, Samarqand) axborot kontentining xilma-xilligi va sifati Toshkent shahridagi maktab darajasida emas. Uchinchidan, ba'zi maktablarda axborot faoliyati "hisobot uchun" tarzida olib boriladi. To'rtinchidan, inqirozli kommunikatsiyalarni boshqarish (crisis communication) tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Beshinchidan, jamoatchilik fikrini muntazam o'rganish va monitoring qilish tizimi mavjud emas.

Aniqlangan muammolardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Har bir Prezident maktabida professional axborot xizmati guruhini (kontent-menejer, SMM-mutaxassis, fotograf-videograf, tahrirchi) tashkil etish va malaka oshirishni tizimli yo'lga qo'yish.
2. Yagona kontent-strategiya ishlab chiqish, har bir maktabning hududiy o'ziga xosligini saqlagan holda Agentlik darajasidagi standartlarni ta'minlash.
3. Ko'p tilli kontent (o'zbek, rus, ingliz) ishlab chiqish va xalqaro auditoriyani qamrab olish.
4. Ota-onalar va o'quvchilar bilan interaktiv muloqotni rivojlantirish: jonli efirlar, so'rovnomalar va Q&A sessiyalari tashkil etish.
5. Inqirozli kommunikatsiyalar bo'yicha protokol va antikrizisli rejalar ishlab chiqish.
6. Bitiruvchilar bilan aloqani kuchaytirish (alumni networking) va ularning muvaffaqiyat hikoyalarini imij shakllantirishda samarali foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4361-son "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. (2019). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4395013>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. (2019). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4545884>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



3. Prezident ta'lim muassasalari agentligi. (06.05.2026). Prezident maktablari. PIIMA.
<https://piima.uz/page/presidential-schools>

4. Prezident ta'lim muassasalari agentligi. (2022). Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalarining ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan ishlashga mas'ul xodimlari ish samaradorligi reytingi.
<https://portal.piima.uz/uz/news/prezident-ta-lim-muassasalari-agentligi-tizimidagi>

5. Urinbayeva, S. (2024). Axborot xizmatida jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish muammolari va mexanizmlari. O'zbekistonda xorijiy tillar, 10(2), 159–171.
<https://doi.org/10.36078/1721202987>

